

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT ARHITEKTURA QURILISH INSTITUTI

BINO VA INSHOOTLAR QURILISHI FAKULTETI

“QURILISH TEXNOLOGIYASI VA TASHKILIYOTI” KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani

“ _____ dots. Ibragimov I.U.
_____ ” _____ 2015 y.

DIPLOM LOYIHASI BO‘YICHA

T U S h U N T I R I S h X A T I

Diplom loyihasining mavzusi: **Farg‘ona viloyati Quvasoy shahar Soybo‘yi
mahalla guzari binosini barpo etish**

Bitiruvchi 9b-11BIQ guruh talabasi:

Sh.Quyliev

Kafedra mudiri:

dots. I.T.Aliev

Diplom loyihasi rahbari:

V.Rasulov

Maslahatchilar:

U.Yusupov

S.Sulaymanov

X.I.Yusupov

K.Shukurova

A.T.Ilyasov

Toshkent – 2015yil

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI

BINO VA INSHOOTLAR QURILISHI FAKULTETI

“QURILISH TEXNOLOGIYASI VA TASHKILIYOTI” KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASI BO‘YICHA
T O P Sh I R I Q

Tasdiqlayman:
Kafedra mudiri
_____ dots. I.T.Aliev

Quyliyev Shahobiddin Shavkatovich
(talabaning familiyasi, ismi-sharifi)

1. Diplom loyihasining mavzusi Farg‘ona viloyati Quvasoy shahar Soybo‘yi mahalla guzari binosini barpo etish

Institut bo‘yicha 20__ yil “__” _____ dagi _____ - son buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Diplom loyihasini bajarish uchun ma’lumotlar: Bino plani, qirqimlari, uzellari, konstruktiv hisoblash, qurilish jarayonlari uchun texnologik xarita, kalendar reja, qurilish bosh plani

3. Tushuntirish xatida keltiriladigan ma’lumotlar:

a) Arxitektura-qurilish qismi: Umumiy ma’lumotlar, bosh reja, bosh reja texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlari, binoning hajmiy rejaviy hal qilinishi hamda texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlari, bino tuzilmalari, poydevorlar, devorlar, pardadevorlar, orayopma va tomyopmalar, tom tuzilmalari, derazalar va eshiklar, pollar, otmoskalar, bino tashqi va ichki qismi pardozi, muxandislik jixozlari, seysmik chora tadbirlari,

b) Konstruktiv hisoblash qismi: zinapoya va yopma plitasini hisoblash va loyihalash, plitaning kesimlarini tanlash, normal kesimlarni mustahkamlik bo‘yicha hisoblash, Plitaning salqiligini aniqlash.

v) Qurilish ishlab chiqarish texnologiyasi qismi: Texnologik kartaning qo‘llanish ko‘lami, g‘isht devorlarni terish ishlari tarkibi, g‘isht terish ishlarida qo‘llaniladigan asboblari va moslamalar, delyanka o‘lchami va ularning soni, ish olib borishga ko‘rsatkichlar, g‘isht terish ishlarini bajarishda xavfsizlik texnikasi, g‘isht terish ishlarida ruxsat beriladigan chetlanishlar, g‘isht terish ishlari uchun texnik -iqtisodiy ko‘rsatkichlar, Mexnat sarfi va ish xaqi kal’kulyatsiyasi jadvali, Ishni bajarish grafigi jadvali

g) Qurilishni tashkil etish va rejalashtirish qismi: Umumiy ma’lumotlar, Yig‘ma tuzilmalar jadvali, Ishlarning mehnat sarfi, mashina – smenalarga talabi hisobi va kalendar grafikning ko‘rsatkichlarni aniqlash jadvali, kurilish mashinalarni va kichik mexanizmlarga ehtiyojni aniqlash, Asosiy qurilish

materiallari va yarim fabrikatlarga ehtiyojlik jadvali, qurilish bosh rejasini hisoblash.

d) Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qismi: ximoya qurilmalari, baxtsiz xodisani tekshirish va xisobga olish, shikastlanish sabablari, ishlab chiqarish joyidagi yoritilish tizimini tanlash, ventilyatsiya tizimini tanlash, elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, o'tga qarshi suv ta'minoti, aloqa, yong'in signalizatsiya, individual ximoya vositalari, qurilish mashinalari havfsizligi.

e) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati: Tushuntirish xatining oxirida keltirilgan.

4. Diplom loyihasining chizmalari ro'yxati:

a) Arxitektura-qurilish chizmalari: bino fasadi, bosh plan, qavatlar plani, xonalar tasnifi, qirqimlar, tugunlar

b) Konstruktiv hisoblash chizmalari: zinapoyani hisoblash va loyixalash, marshi hisobiy sxemasi, armatura sarfi, texnik iqtisodiy ko'rsatkich

v) Qurilish ishlab chiqarish texnologiyasi chizmalari: G'isht terish ishlari uchun texnologik xarita, mehnat sarfi va ish haqi jadvali, texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar

g) Qurilishni tashkil etish va rejalashtiri bo'yicha chizmalari: Kalendar reja, ishchilarning xarakatlanish grafigi, qurilish bosh plani

5. Diplom loyihasi qismlari bo'yicha maslihatchilar:

№	Diplom loyihasining qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchining F.I.Sh.
1.	Arxitektura-qurilish qismi				U.Yusupov
2.	Konstruktiv hisoblash qismi				K.Shukurova
2.	Qurilish ishlab chiqarish texnologiyasi				X.I.Yusupov
3.	Qurilishni tashkil etish va rejalashtirish qismi				A.T.Ilyasov
4.	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qismi				S.Sulaymanov

6. Topshiriq berilgan sana _____

7. Tugallangan diplom loyihasining topshirish sanasi _____

Diplom loyixasi raxbari _____(imzo)

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi _____(imzo)

Kafedra mudiri _____(imzo)

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
I. ARXITEKTURA QURILISH QISMI.....	7
II. KONSTRUKTIV HISOBLASH QISMI.....	15
III. QURILISH ISHLAB CHIQARISH	
TEKNOLOGIYASI QISMI.....	23
IV. QURILISHNI TASHKIL ETISH VA	
REJALASHTIRISH QISMI.....	35
V. MEHNAT MUXOFAZASI VA TEXNIKA	
HAVFSIZLIGI QISMI.....	55
XULOSA.....	63
ADABIYOTLAR.....	64

K I R I S H

Kapital qurilish – bu xalq xo'jaligining eng zarur tarmog'i xisoblanib xalq qiluvchi vazifani o'taydi va xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini zarur bino va inshootlar bilan ta'minlaydi.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikamiz mustaqillikga yerishgandan so'ng xalq farovonligi yo'lida prezidentimiz ko'plab qarorlar chiqardi va bu qarorlar hayotga izchil tadbiriq yetilmoqda.

Jumladan xalqimizni oziq-maxsulotlari turar joy binolari, xalq iste'mol mollari va boshqalar bilan ta'minlash to'g'risidagi qarorlari shular jumlasidandir.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Farg'ona shahrining bosh rejasini amalga oshirish, 2012-2015 yillarda ijtimoiy va transport- kommunal infratuzilmasi obg'ektlarini qurish va rekonstruktsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1641-sonli qarori ijrosini tag'minlash bo'yicha Farg'ona viloyat xokimligi tomonidan belgilangan tadbirlar asosida viloyatdagi bino va inshootlar qurilishiga aloxida ahamiyat berilmoqda.

Qurilishni kompleks mexanizatsiyalash, bino va inshootlarni yirik elementlardan barpo qilish va ularni ilg'or usullar bilan qurib, qurilishni yil davomida uzliksiz yetuk usulda olib borish-bu kapital qurilishni industrlashtirish demakdir. Qurilishni sifatli va samarali chiqishi ko'p jixatdan loyixani mukammalligiga, loihadagi tuzilma va materiallarning arzon, imkoni boricha shu mintaqada ishlab chiqilishi muxim ahamiyatga yega, ayniqsa xozirgi yoqilg'i resurslari taqchiligi paytida bu muxim rolh o'ynaydi.

Qurilishni tashkil qilish esa o'ziga xos qurilish taqdirini xalq qiluvchi omillardandir, chunki ishni tashkil qilish, uni kompleks mexanizatsiyalash, qisman avtomatlashtirish – bu qurilish olib borilayotgan rayondagi mashinalar narxi, imkoniyatidan kelib chiqadi.

Yuqoridagi oldinga qo'yilayotgan vazifani xalq qilishdi yana bir turtki vazifasini o'taydigan masala xalq xo'jaligini, qolaversa qurilishni malakali quruvchi – ishchi kadrlar bilan tahminlash va ularni malakasini tinmay oshirib

borish xozirgi zamon qurilishining talabidir. Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalash, ularga chuqur bilim berish va qolaversa xar xil kasblarni o'rgatish dolzarb masalalardan bo'lib turibdi. Shuning uchun tanlangan mavzu, ya'ni "Quvasoy shahar Soybo'yi mahalla guzari binosi" qurilishi xam yuqoridagi masalalarni xal qilish yo'lidagi ilk qadam deyilsa xam bo'ladi.

LOYIHA UCHUN BERILGANLAR:

Loyiha uchun asos qilib “Quvasoy shahar Soybo’yi mahalla guzari binosi” qabul qilingan.

Loyihalanayotgan bino 4 a iqlim rayonida bo’lib Farg’ona viloyati Quvasoy shahri quriladi. Qurilishi rayoni issiq, quyosh radiatsiyasi kuchli. SNiP II 17-6-80 ga asosan quyidagi iqlim sharoitlarga ega: yillik o’rtacha harorat $+13^{\circ}\text{S}$ ni tashkil etadi. Hisob uchun loyihaviy harorat -15°S . Yil davomidagi yog’ingarchilik miqdori 243mm ni tashkil etadi. Nisbiy namlik eng sovuq oyda 63%, eng issiq oyda 30%. Isitilish muddati yil davomida 132 kun. Yer silkinishi bo’yicha 8 ballik yer silkinish zonasida, eng sovuq harorat -29°S ; eng issiq haroratda esa $+42^{\circ}\text{S}$. Qordan tushadigan yuk 50kg/m^2 , shamol bosimi 55kg/m^2 . Yer osti suv satxi $-4,3 \div 4,6\text{m}$ oralig’ida. Yer osti suv portland tsementdan tayorlangan poydevor uchun zararsiz, yerning muzlash chuqurligi $-0,6\text{m}$, yer relg’efi tekis qiyalik janubdan shimolga qarab ketgan. Bino sinfi II. Yong’inga chidamliligi III sinf.

BOSH REJA

Bosh reja harakatdagi normativ talablarga asosan ishlab chiqilgan. Chizmalar VS-33-87

“Jamoat binolari ishchi chizmalari tarkibi”, haqidagi vaqtincha ko’rsatmaga asosan chizilgan. Bosh reja loyihalanayotgan binolarni o’zaro joylashtirishda “Sanitariya va yong’inga qarshi normalar va qoidalar” qo’ygan talablariga asosan va amal qilingan xolda olib borildi.

Binoning asosiy bosh ko’rinishi janubga qaratilgan. Guzarga kirish ham janub tomondan.

Bosh rejada loyixalayotgan binodan tashqari aholiga xizmat qiluvchi binolar va bir qator turar joy binolari joylashgan bo’lib, ulardagi boradigan texnologik jarayonlar borishi to’liq va to’liqsiz bir-biriga xalaqit bermagan xolda ketishi zarur. Asosiy va yordamchi binolar eni 6m li asfalt yo’l bilan tutashtirilgan. Yo’llar cheti bardyurlar bilan chegaralangan.

Mahalla guzari atrofi metall panjara to'siq o'rov bilan o'ralgan. Maydon 30-35% atrofida ko'kalamzorlashtirilgan.

Asosiy va yordamchi binolarni o'zaro joylashtirish shamol guli, ya'ni shamol yo'nalishi hisobga olingan holda joydashtirilgan.

Shuningdek bosh rejada yong'inga qarshi tadbirlar ko'zda tutilgan. Bunda binolar orasidagi masofa biron biridan yong'in chiqqan holda 2 chisiga o'tmasligini tahminlangan.

Har extimolga qarshi yong'in paytida zarur holat uchun suv xavzasi ko'zda tutilgan, bular suv tarmog'ida suv to'xtagan xolda foydaniladi.

BOSH REJA TEXNIK-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

Maydoning umumiy yuzasi: $F_m = 10000 \text{ m}^2$

Qurilish egallagan maydon: $F_{\text{qur}} = 2253,7 \text{ m}^2$

Yo'llar va tratuarlar: $F_y = 4881,3 \text{ m}^2$

Ko'kalamzorlar: $F_k = 3721,5 \text{ m}^2$

Turli foydalanilgan maydon: $F_t = 1394,2 \text{ m}^2$

Maydonni qurilish bilan egallanish koeffitsienti:

$$K_{\text{qur}} = \frac{F_{\text{qur}}}{F_m} = \frac{2253,7}{10000} = 0,22 \%$$

Maydondan foydalanish koeffitsienti:

$$K_{\text{m.f}} = \frac{F_{\text{qur}} + F_y + F_k + F_t}{F_y} = \frac{2253,7 + 4881,3 + 3721,5 + 1394,2}{10000} = 0,98 \%$$

Maydonni ko'kalamzorlashtirish koeffitsienti

$$K_{\text{ko'k}} = F_k / F_m = 3721,5 / 10000 = 0,37 \%$$

BINONING TUZILMAVIY YECHIMLARI

Quvasoy shahar Soybo'yi mahalla guzari binosi g'ishtli elastik variantda qabul qilingan bo'lib, uning tuzilmaviy yechimlari binoning funktsional xususiyatidan, qurilish maydonini klimatik xususiyatlaridan kelib chiqib tanlangan.

Asosiy tuzilmalarning markalari va ularga qisqacha tavsiflar quyida keltiriladi.

POYDEVORLAR

Pishiq g'ishtdan terigan ichki va tashqi yuk ko'taruvchi va pardadevorlar ostiga yg'ma poydevor boloklar qabul qilingan bo'lib, ularning o'lchamlari yuk kutaruvchi devorlar uchun quyidagicha: poydevor eni 0.4 metr, qo'yilish balandligi 0.6 metr barpo etilgan. Poydevor ostiga eni 0,8 m va balandligi 0.3m bo'lgan poydevor tagliklari o'rnatilgan. Poydevorlarga balandligi buyicha 2 marta qaynoq bitum surkalib, gorizonta1 yuzasi buyicha esa sement-qumli qorishma yordamida namdan himoya qatlam hosil qilinadi.

BINONING SOKOL QISMI

Binoni poydevorlari qum–sementli qorishma bilan butun yuzasi buyicha gorizonta1 gidroizolatsiya qilingandan so'ng, qalinligi 10 sm, o'lchami 30x30 sm li keramik plitkalar yordamida tashqi ta'sirlardan himoya qatlami hosil qilindi.

DEVORLAR

Binoning asosiy yuk kutaruvchi devorlari qalinligi 1,5 g'ishtli g'isht devorlardan tiklangan. Yuk kutaruvchi devorlar markasi M100 bo'lgan pishiq g'ishtlarni murakkab (ohak, sement, qum) qorishmadan foydalanib tiklangan. Binoni yuk kutaruvchi devorlarini burchaklari, buylama va kundalang devorlar kesishgan joylari armatura to'rlari yordamida zuriqtiriladi. Bundan tashqari eshik va dereza proyomlari atroflari temirbeton konstruktsiya bilan uralib chiqilgan. Yuk kutaruvchi devorlarni barpo etish vaqtida devorni balandligi bo'yicha har 5-7 katorda diametri 3-5mm-li armaturali to'rlar bilan armaturalangan. Eshik va dereza proemlari ustiga monolit temirbetondan sarbastalar (peremichka) quyilgan. Binoning perimetri buyicha va ichki yuk kutaruvchi devorlarini qushgan holda, sinfi V12.5-betondan birinchi va ikkinchi qavatlar ustiga devor qalinligida balandligi 15-20 sm-li monolit temirbeton antiseysmik belbog'lar barpo etilgan, antiseysmik belbog'lar QMQ -3-02-03.-96 "Zilzilaviy tumanlarda qurilish" koidalari asosida armaturalar bilan armaturalangan. Binonin kirish qismlarida

balandligi 4 metrli monolit betondan zina va panduslar qurish, panduslar ustiga kozeroklar barpo etilgan.

PARDADEVORLAR

Quvasoy shahar Soybo'yi mahalla guzari binosi pardadevorlari qalinligi 125 mm-li makasi M50 bulgan pishiq g'ishtni, markasi M25 qorishma yordamidan foydalanib tiklangan. Pardadevorlarni barpo etish vaqtida devorni balandligi buyicha har 5-7 katorda diametri 3-5mm-li armaturali to'rlar bilan armaturalangan. Eshik va dereza proemlari ustiga monolit temirbetondan sarbastalar (peremichka) quyilgan.

PEREMICHKALAR

Bino peremichkalari GOST 948-76 bo'yicha 4ta tip o'lchamlar bo'yicha quyma temirbetondan o'lchamlari eshiklar o'lchamlariga qarab eni devorlar qalinligiga qarab balandligi 250 mm-li qilib qabul qilingan bo'lib, ularni g'ishtli devorlarni tiklash paytida quyib borilgan.

TOMYOPMA

Binoning tomyopamalari 1.142-1 seriyani 11-1 chiqarilishini 3ta tipo'lchamlari buyicha o'lchamlari 6.0x1.2 metrli yig'ma ko'p bo'shliqli oldindan zuriqtirilgan temirbeton plitalar qabul qilingan bo'lib, ularning balandligi 22sm-ga teng.

TOM TUZILISHI

Binoning tom tuzilmasi quyidagi qavatlardan tashkil topgan: tom yopmalari ustki qismi chang – to'zonlardan tozalangan keyin bir qavat ruberoidni qaynoq bitum yordalikda yopishtirib pardan himoya qatlami tiklanadi. Pardan himoya qatlami ustidan yengil beton plitalardan issiqlik saqlovchi (qalinligi 10 sm) qatlam hosil qilinadi. Issiqlik saqlovchi qatlam ustidan qalinligi 3sm-li qo'm -

tsementli korishmadan tekislovchi qatlam xosil qilinadi. Bundan keyin bino tomi uchun ikki nishobli, konvertsimon stropilalar konstruksiyasi tiklanadi, stropilalar ustidan progonlar tortilib ularga asbestotsement listlar mahkamlanadi. Tomdan tushadigan yomg'ir va qor suvlarni yig'ib maxsus varonkalar yordamida truboprovod orqali bino otmoskasiga chiqaruvchi konstruksiya nazarda tutilgan.

POLLAR

Quvasoy shahar Soybo'yi mahalla guzari binosi binosi xonalarining funksional xizmatlariga qarab, binoda quyidagi pol to'rlari qabul qilingan: keramik plitkali (zina maydonchalari, san uzellar), mozaikali (yulaklar, xollar jami) va taxtali (yotoqxona va mehmonxona).

DERAZALAR

Binoni xamma qavatleri turt tomoni bo'yicha o'lchamlari uch xildagi akfa deraza romlari qabul qilingan.(18x12; 18x15; 25x27)

ESHIKLAR

Binoning ikkita tashqi kirish eshiklari birinchi qavatning asosiy kirish tomonida joylashgan bo'lib, maxsus buyurtmalar asosida akfa turlari buyicha qabul qilingan. Binoning ichki eshiklari 18-ta bir va 5-ta ikki tabaqali qilib qabul qilingan. Eshiklarni eni 1,0 metrgacha bo'lsa bir tabaqali, undan keng eshiklar ikki tabaqali qilib olingan. Binoning ichki eshiklari 2 xil o'lchamda maxsus buyurtmalar asosida akfa turlari buyicha qabul qilingan.

BINONING TASHQI PARDOZI

Binoning tashqi g'ishtli devorlari qum- tsementli qorishmalar bilan suvaladi va tekislanadi, keyin suv emulsiyali PVA bo'yoqlar bilan bo'yaladi.

BINONING ICHKI PARDOZI

Binoning g'ishtli devor va pardadevorlari suvaladi va vadaemudsa buyoqlar yordamida buyaladi, binoning shiftlari ham eski buyoqlar yordamida oqlanadi, binodagi ayrim xonalarning devorlari PVA buyog'lar bilan, yog'och va metall buyumlar moyli bo'yoqlarda bo'yaladi. Suv bilan ishlash xonalar devorlari glazurlangan plitkalar bilan qoplanadi. Binodagi barcha pardozi ishlari yevropa standartlariga mos ravishda, zamonaviy texnologiyalar asosida olib boriladi.

BINONING SANITAR TEXNIK VA MUXANDISLIK TIZIMLARI

Quvasoy shahar Soybo'yi mahalla guzari binosi muxandislik tarmorqlari asosan tumanning tarmoqlariga ulangan bo'lib, ularni quyida keltiramiz.

SUV TA'MINOTI (VODOPROVOD)

Binoning suv bilan tahminlash tuman tarmog'idan bo'lib, barchasi birgalikda ulangan (ichimlik, xo'jalik va yong'inga qarshi). Suvni kirishdagi bosimi $N = 12$ metr, yong'in paytida esa $N = 15$ metrga teng qilib qabul qilingan.

SUVOQAVA (KANALIZATSIYA)

Suvoqava tuman maxsus qurilgan chuqurlik (yama) tarmog'iga tashqi quvurlar orqali ulanadi. Ishlab chiqarish va maishiy tarmoqlar bitta qilib loyخالangan. Yomg'ir suvlari maxsus voronkalar orqali otmostka chiqariladi va xovlidagi chuqur lotoklar yordamida ko'klamzorlashtirilgan maydonlarga uzatiladi.

ISITISH (OTOPLENIE)

Binoning isitish tizimi qozonxona tarmog'iga ulangan issiq suv bilan amalga oshiriladi. Suvning kirishdagi parametrlari $130^0 - 70^0$ S ga teng. Binoning issiq suv bilan tahminlashni mahalliy mini qozonlar yordamidagi varianti ham nazarda tutilgan.

SHAMOLLATISH (VENTILATSIYA)

Binoning shamollatish ikki usulda olib boriladi , tabiiy –deraza va eshiklar orqali, hamda mexanik-majburiy ventkameralarni ishlatish bilan.

ISSIQ SUV TA'MINOTI

Binoni issiq suv bilan tahminlash maktab qozonxonasi tarmog'i orqali bo'lib, suvning kirishdagi bosimi $N = 10$ metrga teng. Binoning issiq suv bilan tahminlashni mahalliy mini qozonlar yordamidagi varianti ham nazarda tutilgan.

ELEKTR TA'MINOTI

Binoning elektr ta'minoti, shahar tarmoqdan bo'lib, loyihalanayotgan bino uchun maxsus o'rnatilgan pasaytiruvchi transformatoridan foydalanilgan, tarmoqdagi kuchlanish 380/220 voltni tashkil etadi.

ALOQA VA SIGNALIZATSIYA

Binoda quyidagi aloqa tizimlari kuzda tutilgan: telefon aloqasi, modem – faks aloqasi, elektrsoatlar, himoya va yong'inga qarshi signalizatsiyalar.

BINONING BOSH REJASI

Quvasoy shahar Soybo'yi mahalla guzari binosi bosh rejasi qurilish me'yorlari asosida ishlab chiqilgan. Bunda Quvasoy shahrining iqlimiy sharoiti, quyosh orientatsiyasiga qarab bosh reja hisoblangan.

Binolarning bosh rejasini ishlab chiqishda binoning funksional xususiyatlaridan, binoning xizmat ko'rsatish soxasi uchun yordamchi binolar va inshootlar bilan bir maydonda joylashtirilishidan kelib chiqiladi, yoki binoni xizmat ko'rsatuvchi binolarga yaqin qilib joylashtirish iqtisodiy jixatdan samalari xisoblanadi.

Bosh rejada bino qizil chiziqdan 30 metr uzoqlikda qilib joylashtirilgan bo'lib, yaqin perspektivada yo'l kengayishi hisobga olingan.

Bosh rejada qurilayotgan bino va yordamchi bino-inshootlarni joylashtirish qurilish manzilini shamol yunalishiga (shamol guli) qarab rejalashtiriladi.

Quvasoy shahar Soybo'yi mahalla guzari binosi shamol gulini yoz(iyul) va qish(yanvar) oylari uchun kursatkichlari 1.1-jadvalda keltiriladi.

SHAMOL GULI

1.1-jadval.

Oylar bo'yicha harakteristka		Tomonlar orientatsiyasi							
oylar	xarakteristika	SH	SH.SH.	SH	J.SH.	J	J.G'.	G'	SH.G`
Iyul	Shamol qaytarilishi, %	16	5	4	19	13	6	17	20
	Shamol tezligi, m.s	1.0	1.8	1.05	1.6	2.2	3.0	4.0	2.4
Yanvar	Shamol qaytarilishi, %	10	9	7	28	15	6	14	11
	Shamol tezligi, m.s	1.7	1.7	1.4	1.4	1.3	1.9	2.0	1.8

Bosh rejada atrof-muxitni himoya qilish, sanitariya va gigiena qoidalariga amal qilish maqsadida qurilish maydonini bir va ko'p yillik daraxtlar, butalar va gullar bilan ko'kalamzarlashtirish nazarda tutilgan, ularni sug'orish uchun ariq va ariqchalar tizimi loyخالangan. Bulardan tashqari bino va inshootlarni bir-biri bilan funktsig'onalar jarayoni olib borish uchun asfalt yo'llari va yo'lkalar bilan bog'lash bosh rejada keltirilgan. O'zbekiston respublikasining amaldagi qonunlari buyicha yangi ishlab chiqilayotgan loyiha ishlariga mehnatni, atrof muhitni muhofazalash va xavfsizlik texnikasiga qilinishi bo'yicha yuqori darajadagi talablar quyilmoqda. Ushbu talablar bir tomondan obyektlar qurilishi davriga tegishli bulsa, ikkinchi tomondan bino-inshootlarning foydalanish davrini qamrab oladi.

Qurilish davrida obyektlarda turli xildagi murakkab mashina-mexanizmlardan foydalaniladi, yahni texnologik sharoitlar bularni taqozo etadi. Buning natijasida ishlab-chiqarish travmatizimini xavfi oshadi, shuning uchun ishchilar mehnatini muxofazalash va ishlab-chiqarish sanitariyasi qoidalariga rioya etish muhim hamiyat kasb etadi.

YIG'MA TEMIRBETON ZINAPOYA MARSHI VA PLITASINI HISOBLASH VA LOYIHALASH

Zinapoya marshining eni 1350 mm, binoning qavati balandligi 3300 mm ; zinapoya marshining qiyalik burchagi $\alpha \approx 30^\circ$; pog'onalarining o'lchamlari 150x300 mm; zinapoya marshi V25 sinfli og'ir betondan tayyorlanadi; bo'ylama armaturasi sinfi A – II, ko'ndalang armatura A – I; armatura to'rlari - Vr – I sinfli armatura simlaridan tayyorlanadi.

V – 25 sinfli betonning ko'rsatkichlari:

$$R_b = 14,5 \text{ MPa}; R_{bt} = 1,05 \text{ MPa}; E_b = 27000 \text{ MPa}.$$

A – II sinfdagi armatura uchun:

$$R_s = 280 \text{ MPa}; E_s = 210000 \text{ MPa}.$$

A – I sinfdagi armatura uchun:

$$R_{sw} = 175 \text{ MPa}; E_s = 210000 \text{ MPa}.$$

B – I sinfli armatura uchun ($\varnothing$ 4mm)

$$R_s = 370 \text{ MPa}; R_{sw} = 265 \text{ MPa}; E_s = 170000 \text{ MPa}$$

Yuklar va zo'riqlashlarni aniqlash:

Zinapoya marshining gorizontal proektsiyadagi xususiy og'irligi:

$$g^n = 3,6 \text{ kn/m}^2.$$

Zinapoyalar uchun vaqtli yukning normativ qiymati $v^n = 3 \text{ kn/m}^2$, $\gamma_f = 1,3$.

Marshning 1 n/m uzunligiga to'g'ri keluvchi hisobiy yuk:

$$q = (g^n \gamma_f + v^n \gamma_f) a = (3,6 \cdot 1,1 + 3 \cdot 1,3) 1,2 = 9,5 \text{ kH} / \text{m}$$

Maksimal etuvchi moment:

$$M = \frac{ql^2}{8} = \frac{9,5 \cdot 3,3^2}{8} = 13 \text{ kH} \cdot \text{m}$$

Tayanchdagi ko'ndalang kuch:

$$Q = \frac{ql}{2} = \frac{9,5 \cdot 3,3}{2} = 15,7 \text{ kH}$$

Zavodlarda ishlab chiqaruvchi yig'ma t/b konstruksiyalarga mos keluvchi qiymatlarda dastlabki hisoblar uchun zinapoya marshining o'lchamlarini qabul qilamiz:

plitasi qalinligi: $h_f^1 = 30 \text{ mm} = 3 \text{ cm}$;

qobirg'a (kosour) balandligi: $h = 170 \text{ mm} = 17 \text{ sm}$;

qobirg'a eni: $b = 80 \text{ mm} = 8 \text{ sm}$.

Hisoblarda marshning kesimi tokchasi siqiluvchi sohada joylashuvchi tavr shaklida olinadi. U holda:

$$b = 2 b_0 = 2 \cdot 8 = 16 \text{ sm}$$

Tokchanning hisobiy eni:

$$b_f = 12 h_f + b = 12 \cdot 3 + 16 = 52 \text{ sm}$$

$$h = 17 \text{ sm}; \quad h_f = 3 \text{ sm}$$

Ko'rilayotgan zinapoya marshi qobirg'alarining bo'ylama armaturasini hisoblaymiz.

Hisobiy tavr kesim uchun $x = h_f$ holatida quyidagi shartni tekshiramiz:

$$M \leq R_b \gamma_{b1} h_f^1 b_f^1 (h_0 - 0,5 h_f^1).$$

Agar shart qanoatlantirilsa, neytral o'q tokchadan o'tadi.

$$1300000 \leq 14,5(100)0,9 \cdot 52 \cdot 3(14,5 - 0,5 \cdot 3) = 2646540 \text{ H} \cdot \text{cm},$$

shart bajarildi, demak neytralg' o'q tokchadan o'tadi.

Armatura hisobi eni $b_f = 52 \text{ sm}$ ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi kesim uchun bajariladi.

Hisoblaymiz:

$$A_0 = \frac{M}{R_b \gamma_{b1} b_f^1 h_0^2} = \frac{1300000}{14,5(100) \cdot 0,9 \cdot 52 \cdot 14,5^2} = 0,091 ;$$

$$\xi = 0,095; \quad \zeta = 0,95;$$

$$A_s = \frac{M}{\zeta \cdot h_0 \cdot R_s} = \frac{1300000}{0,95 \cdot 14,5 \cdot 280(100)} = 3,37 \text{ cm}^2$$

Qabul qilamiz: $2 \text{ } \emptyset 16 \text{ A} - \text{II}$, $A_s = 4,02 \text{ sm}^2$.

Har bir qobirg'ada bo'ylama armatura sinch tarkibida joylashtiriladi.

Armatura sinchining montaj armaturasini $\emptyset 6 \text{ A} - \text{I}$ sterjenlaridan qabul qilamiz.

Qiya kesimlarning ko'ndalang kuch ta'siriga hisobi

Ko'ndalang kuch bo'yicha quyidagi shartlarni tekshiramiz:

$$Q \leq \varphi_{b4} R_{bt} b h_0 ;$$

$$15700H < 0,6 \cdot 1,05 \cdot 16 \cdot 14,5(100) = 14616H$$

shart bajarilmadi, demak ko'ndalang armatura hisob bo'yicha qo'yilishi kerak.

Hisoblaymiz:

$$B = \varphi_{b2} R_{bt} b h_0^2 = 2 \cdot 1,05 \cdot 16 \cdot 14,5^2 (100) = 706440H \cdot cM$$

hisobiy qiya kesimda $Q_b = Q_{sw} = \frac{Q}{2}$ bundan:

$$C = \frac{B}{0,5Q} = \frac{706440}{0,5 \cdot 15700} = 90cM > 2h_0 = 2 \cdot 14,5 = 29cM \cdot$$

Qabul qilamiz: $C = 2h_0 = 29 \text{ sm.}$

U holda: $Q_b = \frac{B}{c} = \frac{706440}{29} = 24360H \cdot$

$Q_b = 24360 > Q = 15700H$ bo'lgani uchun ko'ndalang armatura konstruktiv talablar bo'yicha qo'yiladi.

Tayanchlar yaqinidagi $1/4\ell$ uchastkalarida $\emptyset 6 \text{ A} - \text{I}$ ko'ndalang sterjenlar qadami:

$$S = \frac{h}{2} = \frac{17}{2} = 8,5cM, \quad \text{qabul qilamiz. } S = 8\text{sm.}$$

Oraliq o'rtasida ko'ndalang armatura qadami:

$$S = 3h/4 = 3 \cdot 17/4 = 12,75\text{sm.}$$

qabul qilamiz: $S = 12 \text{ sm.}$

Zinapoya marshining plitasi (tokchasi) konstruktiv holda

$S = 100 \text{ mm}$ qadami bilan qo'yiluvchi sterjenlari $\emptyset 4 \text{ Vr} - \text{I}$ bo'lgan armatura to'ri bilan jihozlanadi.

Marshning plitasi zinapoya pog'onalari bilan monolit holda bog'langan bo'ladi, shu sababli uning yuk ko'tarish qobiliyati pog'onalar qarshiligi bilan birgalikda to'lig'icha tahminlangan bo'ladi.

Pog'onalar konstruktiv holda $\emptyset 6 \text{ A-I}$ sterjenlari bilan armaturalanadi.

Zinapoya marshining salqiligini hisoblash

Normativ doimiy va uzoq muddatli yuklardan hosil bo'luvchi eguvchi momentini hisoblaymiz:

$$q^n = (g^n + v_{gn}^n) a = (3,6 + 2)1,2 = 6,72 \text{ kH} / \text{m} ;$$

$$M^n = \frac{q^n l^2}{8} = \frac{6,72 \cdot 3,3^2}{8} = 9,15 \text{ kH} \cdot \text{m}.$$

Hisobiy kesimning inertsia momenti:

$$I = \frac{52 \cdot 17^3}{12} - 2 \cdot \frac{18 \cdot 14^3}{12} = 13060 \text{ cm}^4$$

Hisob kesimining bikrligini topamiz:

$$B = 0,85 \cdot E_b J = 0,85 \cdot 27000(100) \cdot 13060 = 29,97 \cdot 10^9 \cdot \text{cm}^2$$

Element o'qining egriligini topamiz.

$$\frac{1}{r} = \frac{M\varphi}{B} = \frac{9,15 \cdot 10^5 \cdot 2}{29,97 \cdot 10^9} = 61,06 \cdot 10^{-6} \text{ cm}^{-1}.$$

Marshning salqiligini quyidagi formula bo'yicha aniqlaymiz:

$$f = \frac{5}{48} l^2 \frac{1}{r} = \frac{5}{48} \cdot 330^2 \cdot 61,06 \cdot 10^{-6} = 0,69 \text{ cm}$$

CHegaraviy salqilik:

$$[f] = \frac{l}{200} = \frac{330}{200} = 1,65 \text{ cm}.$$

$$f = 0,69 \text{ cm} < [f] = 1,65 \text{ cm}$$

demak, zinapoya marshining salqiligi normalarda ruxsat etiladigan chegaraviy salqilikdan oshmas ekan.

Zinapoya marshining sinchi chizmalari bitiruv – malakaviy ishining grafik qismida keltirilgan.

zinapoya maydonchasi plitasining hisobi

Maydoncha plitasining old qobirg'asining xususiy og'irligi:

$$q = (0,29 \cdot 0,11 + 0,07 \cdot 0,07) \cdot 1 \cdot 2500 \cdot 1,1 = 1000 \text{ H} / \text{m}.$$

chetki – devor oldi qobirg'asining xususiy og'irligi:

$$q = 0,14 \cdot 0,09 \cdot 1 \cdot 25000 \cdot 1,1 = 350 \text{ H} / \text{m}.$$

Hisobiy vaqtli yuk:

$$v = 3 \cdot 1,3 = 3,9 \text{ kH} / \text{m}^2.$$

Maydoncha plitasining hisobida tokchanning qobirg'alariga elastik sxemada birlashtirilgan deb olinadi, marshlar tayanuvchi old qobirg'a va devor oldi

qobirg'alarining alohida hisoblari bajariladi. Devor oldi qobirg'asi plita tokchasi ening yarmiga to'g'ri keluvchi yuklarni qabul qiladi deb qaraladi.

PLITA POLKASINING HISOBI

Plita polkasining hisob sxemasi tayanchlarda qisman qistirilgan deb qabul qilinadi. Hisobiy oraliq qobirg'alar orasidagi masofaga: $\ell_0 = 0,98$ m. teng

Eguvchi momentlar sharnirlar hosil bo'lishini hisobga olib topiladi:

$$M_{on} = M_{np} = \frac{ql^2}{16} = \frac{5550 \cdot 0,98^2}{16} = 333_{H \cdot m}$$

$$b. ye, \quad q = (g + v) = 1650 + 3900 = 5550_{H/m}.$$

$$b = 100\text{sm}, \quad h_0 = h - a = 6 - 2 = 4 \text{ sm}.$$

Hisoblaymiz:

$$A_0 = \frac{M}{R_b \gamma_{b1} b h_0^2} = \frac{33300}{14,5(100) \cdot 0,9 \cdot 100 \cdot 4^2} = 0,016.$$

Yordamchi jadvaldan aniqlaymiz:

$$A_s = \frac{M}{\zeta \cdot h_0 \cdot R_s} = \frac{33300}{0,998 \cdot 4 \cdot 280(100)} = 0,30_{cm^2}.$$

$$\text{Qabul qilamiz:} \quad 6 \varnothing 3 \text{ B' - I, } A_s = 0,42\text{sm}^2.$$

Ushbu armatura sterjenlari $S = 200$ mm li yacheykaga ega bo'lgan armatura to'ri sifatida qo'yiladi.

Tayanchlar yaqinida armatura to'ri bukilib, kesimning yuqori qismiga joylashtiriladi.

Old qobirg'ani hisoblash

Old qobirg'aga tahsir etuvchi yuklar:

$$q = (1650 + 3900) \frac{1,2}{2} + 1000 = 4330_{H/m};$$

Marshlarning tayanch reaksiyasidan hosil bo'luvchi va old qobirg'aning buralishidan tahsir etuvchi teng taqsimlangan yuk:

$$q_1 = \frac{Q}{Q} = \frac{15700}{1,2} = 1300_{H/m}.$$

1p. m dagi burovchi moment:

$$M_k = q_1 \frac{10+7}{2} = 1300 \cdot 8,5 = 11050 \text{H} \cdot \text{cm} = 110 \text{H} \cdot \text{m}.$$

q_1 yukning to'liq oraliq bo'yicha tahsir etuvchi deb olib, old qobirg'aning oralig'i o'rtasida hosil bo'luvchi eguvchi momentini topamiz:

$$M = \frac{(q+q_1)l_0^2}{8} = \frac{(4330+1330) \cdot 2,8^2}{8} = 5500 \text{H} \cdot \text{m}.$$

Ko'ndalang kuch:

$$Q = \frac{(q+q_1)l}{2} = \frac{(4330+1300)2,8}{2} = 7880 \text{H}.$$

Old qobirg'aning hisobiy kesimi tokchasi siqiluvchi sohada joylashgan tavr kesim ko'rinishida qabul qilinadi.

Kesim eni:

$$b_f^1 = 6h_f^1 + b_p = 6 \cdot 6 + 12 = 48 \text{cm}.$$

Old qobirg'a tokcha bilan monolit biriktirilgani uchun, burovchi moment tahsirini ehtiborga olmaslik mumkin.

Neytralg' o'qining holatini aniqlaymiz:

$$M = 550000 \text{cm} < R_b \gamma_b b_f^1 h_f^1 (h_0 - 0,5h_f^1) = 14,5(100) \cdot 48 \cdot 6 \cdot 0,9(31,5 - 0,5 \cdot 6) = 10711440 \text{H} \cdot \text{cm}$$

shart bajarildi, demak neytralg' o'q tokchada joylashadi.

Hisoblaymiz:

$$A_0 = \frac{M}{b_f^1 h_0^2 R_b \gamma_{b1}} = \frac{550000}{48 \cdot 31,5^2 \cdot 14,5(100) \cdot 0,9} = 0,009$$

Yordamchi jadvaldan: $\zeta = 0,996$; $\xi = 0,009$.

$$A_s = \frac{M}{\zeta h_0 R_s} = \frac{550000}{0,996 \cdot 31,5 \cdot 280(100)} = 0,63 \text{cm}^2.$$

Qabul qilamiz: $\emptyset 14 \text{ A} - \text{II}$, $A_s = 1,533 \text{ sm}^2$

Armaturalash koefitsienti:

$$\mu = \frac{1,539}{12 \cdot 31,5} \cdot 100 = 0,41\%.$$

Old qobirg'ani ko'ndalang kuchlar tahsiriga hisoblash

Hisobiy yuklardan ko'ndalang kuch: $Q = 7880 \text{ n}$.

Hisoblaymiz:

$$B = \varphi b_2 R_b + b h_0^2 = 2 \cdot 1,05 \cdot 12 \cdot 31,5^2 (100) = 2500470_{H \cdot cm}.$$

Hisobiy kesim uchun: $Q_6 = Q_{sw} = Q/2$.

$$C = \frac{B}{0,5Q} = \frac{2500470}{0,5 \cdot 7880} = 634_{cm} > 2h_0 = 63_{cm}.$$

Qabul qilamiz: $C = 2h_0 = 63 \text{ cm}$.

Beton kesim qabul qila oladigan ko'ndalang kuch:

$$Q_b = \frac{B}{C} = \frac{250470}{63} = 39690_H > Q = 7880_H;$$

demak, ko'ndalang armatura hisob bo'yicha talab etilmaydi. Konstruktiv holda

$\varnothing 6 \text{ A} - \text{I}$ sterjenlarni $S = 150 \text{ mm}$ qadam bilan qabul qilamiz.

Old qobirg'a armaturalari sinch ko'rinishida joylashtiriladi. Old qobirg'aning marshlar tayanishiga mo'ljallangan konsol qismi armatura to'rlari bilan jihozlanadi.

Ushbu to'rlar qobirg'aning armatura sinchiga xomutlar vositasida biriktiriladi.

Devor oldi qobirg'asining hisobi

Qobirg'aga tahsir etuvchi yuklar:

$$q = (1650 + 3900) \cdot 1,2 / 2 + 350 = 3680_{H/m}.$$

Hisobiy eguvchi moment:

$$M = \frac{ql_0^2}{8} = \frac{3680 \cdot 2,8^2}{8} = 3600_{H \cdot m}$$

Ko'ndalang kuch:

$$Q = \frac{ql_0}{2} = \frac{3680 \cdot 2,8}{2} = 5150_H.$$

Hisobiy kesim o'lchamlari:

$$b = 10 \text{ sm} \quad h = 20 \text{ sm} \quad h_0 = 17 \text{ sm} \quad Q = 3 \text{ sm} \quad b_f = 48 \text{ sm} \quad h_f = 6 \text{ sm}$$

Tekshiramiz:

$$M = 360000_{H \cdot cm} < R_b \gamma_{bl} h_f^1 b_f^1 (h_0 - 0,5 h_f^1) = 14,5(100) \cdot 48 \cdot 6 \cdot 0,9(17 - 0,5 \cdot 6) = 5261760_{H \cdot cm}$$

shart qanoatlantirildi, demak, neytral o'q tokchada joylashadi.

Hisoblaymiz:

$$A_0 = \frac{360000}{48 \cdot 17^2 \cdot 14,5(100) \cdot 0,9} = 0,02; \quad \zeta = 0,99 \quad \xi = 0,02.$$

Bo'ylama armatura yuzasini topamiz:

$$A_s = \frac{360000}{0,99 \cdot 17 \cdot 280(100)} = 0,76 \text{ cm}^2.$$

Qabul qilamiz: $\emptyset 12 \text{ A} - \text{II}$, $A_s = 1,131 \text{ sm}^2$.

$$\mu = \frac{1,131}{10 \cdot 17} \cdot 100 = 0,66\%.$$

Qobirg'aning qiya kesimlari mustahkamligini tekshiramiz:

$$B = 2 \cdot 1,05 \cdot 10 \cdot 17^2 (100) = 606900 \text{ H} \cdot \text{cm}.$$


$$C = \frac{606900}{0,5 \cdot 5150} = 235 \text{ cm} > 2h_0 = 2 \cdot 17 = 34 \text{ cm}.$$

Qabul qilamiz: $C = 2h_0 = 34 \text{ sm}$.

$$Q_b = \frac{606900}{34} = 17850 \text{ H} > Q = 5150 \text{ H}.$$

demak, hisob bo'yicha ko'ndalang armatura qo'yilishi talab etilmaydi.

Konstruktiv holda $\emptyset 6 \text{ A} - \text{I}$ sterjenlaridan $S = \frac{h}{2} = 10 \text{ cm}$ qadam bilan qo'yiluvchi ko'ndalang armatura qabul qilamiz. Devor oldi qobirg'asining hisobiy va konstruktiv armaturalari payvand sinchi ko'rinishida joylashtiriladi.



2.1.-rasm. Zinani umumiy ko'rinishi.

G'ISHT TERISH ISHLARI UCHUN TEXNOLOGIK KARTA

Texnologik kartaning qo'llanish ko'lamini

G'isht terish ishlari uchun texnologik xarita Farg'ona viloyati Quvasoy shahar Soybo'yi mahalla guzari binosi g'isht devorlarini tiklash uchun tuzilgan bo'lib, g'ishli devorlar qurilish meherlari va qoidalari asosida sifatli qilib bajarilishi lozim. Guzar binosining 4 tomoni g'isht devor bilan o'ralgan bulib, tashqi va ichki yuk kutaruvchi devorlar qalinligi 1,5 g'ishtdan, parapet devorlar qalinligi 1.0 g'ishtdan, pardadevorlar qalinligi esa 0,5 g'ishtdan tiklanadi.

G'ISHT DEVORLARNI TERISH ISHLARI TARKIBI

G'isht terish ishlari deganda, oddiy g'ishtlarni oralarini qurilish qorishmalari bilan mahlum bir qalinlikda to'ldirib, terib chiqilishiga aytiladi, va bunday konstruktsiya o'z massasi va yuqoridan tushayotgan yuklarniqabul qilib bino poydevoriga uzatishga, binoni issiq-sovuqdan saqlashga, shuningdek xonalarni shovqindan (tovush) himoyalashga xizmat qiladi.

G'isht terish uchun ishlatilidigan qorishmalar deb oldindan mehyorlab olingan noorganik bog'lovchi modda, mayda to'ldiruvchi (qum), suv va shuningdek plastiklashtiruvchi qo'shimchani aralashtirib tayyorlangan aralashmaga aytiladi. Bunday aralashma vaqt o'tishi bilan qotish davomida birlashtirayotgan material yoki konstruktsiya bilan birlashib ketadi. G'isht terish ishlarida qorishmalarning ishlatish joyi, unga qo'yiladigan talablar, qotish sharoiti va ular qo'llaniladigan bino, inshoot yoki konstruktsiyadan foydalanilishiga qarab, qorishmalarning siqilishga bo'lgan mustahkamligi buyicha quyidagi markalari mavjud. M4, M10, M25, M75, M100, M150 va M200.

G'ishtdan terilgan terim siqilishga yaxshi qarshilik kursatadi, lekin g'isht terishda ishlatiladigan qorishma ni g'ishtga nisbatan mustahkamligi ancha past bulganligi uchun, g'ishtlarni terish paytida ularni imkoni boricha choklarini siljitib, yahni chok bostirib terish maqsadga muvofiqdir.

G'ishtlar qiyshaymasligi yoki sinmasligi uchun ularni imkoni boricha bir biriga katta yuzalar bilan tegib turishini tahmildash zarur. Yuqoridagidan kelib chiqib, g'isht terishni uchta qoidasiga rioya qilish talab etiladi:

-g'ishtlarning to'shama tomonlari terimga tahsir qiladigan kuchga perpendikulyar bo'lishi terimdagi g'ishtlar esa qatorma-qator (qavatma-qavat) terilishi zarur;

-g'isht qirralari tekis (nishobligi bo'lmagan va o'z nishobligi bilan ikkinchi nishob g'isht ustiga o'rnamagan) choklari gorizonti tashqi yuzaga paralel, vertikali esa hisht ustiga nisbatan perpendikulyar bo'lishi zarur;

-qatorlab g'isht terishda birinchi qator g'ishtlari choki keyingi qator g'isht chokiga tushib qolmasligini tahmishlash maqsadida devor buylama qator g'ishtlarini $1/4$ g'ishtga, devor eniga joylashgan g'ishtlarni esa $1/2$ g'ishtga surib terish talab qilinadi.

G'isht devorlarni terish ishlari tarkibiga asosan quyidagi ishlarni bajarish kiradi:

1. Inventarh so'richalarni o'rnatish va yig'ishtirib olish;
2. G'isht va qorishmalarni ish joyiga uzatib berish;
3. G'isht devor, parapet va pardadevorlarni terish.

G'isht terish ishlarini amalga oshirish uchun quyidagi materiallar va usullardan foydalanamiz:

Markasi M25. qorishma qo'zg'aluvchanligi 4-6 sm ni tashkil qiladigan murakkab qorishmalar (tsement, oxak va qisman gil qo'shib) ish joyida tayyorlanadi yoki maxsus avtotransportda tashib keltiriladi.

Markasi M-100, standart o'lchamlari 250 x 120 x 65 mm bulgan g'ishtdan, devor choklarini bostirish bo'yicha esa zanjirsimon yoki bir qatorli usulidagi terimdan foydalanib bino devorlarini tiklaymiz. Undan sung bino devorlari suvaladi, tekislanadi va suvli bo'yoqlar bilan bo'yaladi.

G'isht terish ishlarida qo'llaniladigan asboblari va moslamalar:

G'isht terish jarayoni asosiy va qushimcha ishlardan tashkil topadi. Asosiy ishlarga ish joyining o'zida bajarilib, bunda ashhyo va ish qurollarini, asbob-

uskunalarni ishlatilib g'isht va korishmadan devor konstruktsiyalarni barpo etiladi. Terim jarayoni quyidagi operatsiyalardan iborat buladi: qatorlagich (poryadovka) o'rnatish; g'ishtlarni tug'ri terish uchun ip tortish; terim ishlarini bajarish. Qo'shimcha ishlarga quyidagilar kiradi: xavoza, tusiqlar qurish; g'ishtni va qorishmani ish joyiga uzatish va joylashtirish.

G'isht terish ishlarini samarali va sifatli bajarilishiga g'isht teruvchining qo'lida maxsus asbob va moslamalar bo'lgandagina erishiladi. G'isht terish ishlarini bajarish uchun zraur bo'lgan asbob va moslamalar, g'isht va qorishmalarni tashish va ish joyiga uzatish uchun mexanizmlar quyida keltiriladi:

- 1.Kerakli bolg'a MKI VNIISMI minmontakspetsstroy;
- 2.Bolg'a MKU VNIISMI;
3. Minstroy taklif qilgan oraliq poryadovkasi;
4. Trest orgstroy taklif qilgan burchak poryadorovkasi;
- 5.Rasshivka RV -1, va RV-2;
- 6.Xavo tortuvchi kanal terish uchun moslama;
- 7.Deraza oynasini o'lchami uchun moslama;
- 8.Yog'och ugolhnik;
- 9.Ip tortuvchi skoba;
- 10.SHovunh ipi bilan;
11. Oraliq mayagi;
12. Qorishmani qabul qilib, uzatib beruvchi moslama;
- 13.SHayton (urovenh);
- 14.Ruletko (po'lat o'lchami);
- 15.Qorishma uchun bunker;
16. Qorishma uchun metall yashik;
- 17.Universal podmostlar;
- 18.Kran KamAZ-45717
- 19.Avtosamosval 3IL -585
- 20.Avtomobil yarim pritsep MA3-5215

G'ISHT TERISH ISHLARINI BAJARISH TEXNOLOGIYASI VA UNI TASHKIL QILISH

Xavoza (podmost), g'isht, qorishma turgan g'isht terish uchastkasiga, g'isht teruvchining ish joyi deyiladi.

Yopma devorli joylarni terayotganda g'isht teruvchining ish joyini eni 2,5-2,6 metrni tashkil qilishi zarur. Bundan 0,6-0,7 m –ishchi zona, bunda g'isht teruvchi erkin xarakatlana olishi zarur, 1,5-1,6m- materiallarni taxlab qo'yish joyi, 0,3-0,4m erkin zona, bunda ishchilar materiallarni turib qabul qilib olishadi.

G'isht teruvchi ortiqcha xarakat qilmasligi uchun g'isht devor ro'parasiga, qorishma esa deraza ro'parasiga qo'yilishi zarur, bunda yashiq qorishma bilan devorni uzun tomoniga perpendikulyar qo'yiladi.

Burchaklarni terishda esa g'isht teruvchini ish joyi quydagicha tashkil qilinadi, bunda g'isht asosan burchakka to'planadi, qorishma esa burchakdan ozgina qochiriladi, chunki burchakka ko'p g'isht sarf bo'ladi.

G'isht terish jarayoni bir nechta operatsiyadan iborat bulib, bu operatsiyalarni ikkitadan oltitagacha ishchi olib boradi. G'isht teruvchilar soniga qarab zvenolar “ikki kishilik”, “uch kishilik”, “besh kishilik” va zvenolar deb ataladi. Zvenodagi ishchilar soni devor qalinligiga, ish murakkabliliga bog'liq buladi.

Bunday zvenodagi ishchilarning har biri smena davomida 300-500 - tagacha g'isht teradi. Masalan “ikki kishilik”, – 1000 donagacha, “uch kishilik” - 1200-1500 donagacha, “besh kishilik” - 1500-1800 donagacha, “olti kishilik” - 1800- 2400 donagacha g'isht teradi. Zvenolar birlashib, birgadalarni tashkil qiladi.

Binoni zaxvatkaga bo'lish uning xajmiga va ko'rinishiga bog'liq .Masalan bir qavatli binolar temperatura bloklariga va ko'p qavatli binolar esa sektsiyasiga yoki qavat bo'yicha bo'linadi.

Zaxvatkalar esa o'z navbatida delyankalarga bo'linadi. Men loyihalayotgan bino ikki qavatli bo'lganligi uchun uni ikkita zaxvatkaga bulib ishni tashkil etish

maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zaxvatkalar bo'yicha ish hajmini aniqlab, uni 3.1jadvalga kiritib, mehnat sarfi va ish haqini aniqlanadi. Binoning rejadagi ulchamlarni va balandligiga qarab g'isht terish ishlarini metr kub ulchamda aniqlanadi.

ISH HAJMINI ANIQLASH

Binoni birinchi qavatning 1,5 g'ishtli devori uchun ish hajmini aniqlaymiz:

$$V = (22,8 \times 3 + 5,6 \times 8) \times 3,0 = (340,2 - 35,5) \times 0,38 = 115,8 \text{ m}^3$$

birinchi qavatning 0,5 g'ishtli pardadevori uchun ish hajmini aniqlaymiz:

$$V = 5,6 \times 10,2 \times 3,0 = 171,3 \text{ m}^2$$

Binoni ikkinchi qavatning 1,5 g'ishtli devori uchun ish hajmini aniqlaymiz:

$$V = (22,8 \times 3 + 5,6 \times 8) \times 3,0 = (340,2 - 74,42) \times 0,38 = 101 \text{ m}^3$$

ikkinchinch qavatning 0,5 g'ishtli pardadevori uchun ish hajmini aniqlaymiz:

$$V = (5,6 \times 8 + 4,35 \times 4) \times 3,0 = 186,7 \text{ m}^2$$

Binoni barpo etish uchun zarur bo'ladigan g'isht va korishma miqdorini aniqlaymiz.

Zarur bo'ladigan g'isht miqdori:

$$M_{g'isht} = (115,8 + 101) \times 396 + (171,3 + 186,7) \times 50,9 = 104075 \text{ dona}$$

Zarur bo'ladigan qorishma miqdori:

$$M_{qorishma} = (115,8 + 101) \times 0,234 + (171,3 + 186,7) \times 0,024 = 59,32 \text{ m}^3$$

G'isht terish ishlarini olib borish uchun zarur buladigan surichalar miqdorini aniqlaymiz:

$$M_{suricha} = (171,3 + 186,7 + 53,24) \times 0,491 + (186,7 + 232,8) \times 0,12 \times 0,491 = 25,97 \text{ m}^3$$

Aniqlangan ish hajmlarini barchasini 3.1 jadvalga kiritib, ular asosida umumiy ish miqdori uchun mehnat sarfi va ishchilar ish haqini aniqlaymiz.

Delyanka o'lchami va ularning soni

Delyanka o'lchami va ularning soni zaxvatka uzunligiga va ishlayotgan zveno ishchilar soniga bog'liq buladi. Agar devorda deraza va eshik o'rinlari kam yoki bo'lmasa unda delenkaga bo'lmasa xam bo'ladi, agar proyomlar ko'p bo'lsa, u xolda aloxida oraliqlarni aloxida zvenolar bajarib, devor qalinligi va ishni murakkabligi qarab, ishchilar delenka uzunligi quydagi formuladan aniqlanadi.

$$l_o = \frac{N \cdot C \cdot D}{100V \cdot S}$$

Bu yerda.

N-zvenodagi ishlar soni

C-smena davomiyligi -8,2 soat

D-normani bajarishi % d=100-120%

V-1pm dagi g'isht terish ishi xajmi

S-1m³ g'isht devorni bajarish uchun mehyorda belgilangan mexnat sarfi ishchi soatda.

Bizning sharoitimizda proyomlar ko'p shuning uchun asosan 2 xil zveno-2 kishilik va 5 kishilik zveno ish bajaradi.

Devor qalinligi 1¹/₂ g'isht bo'lganda 2 kishilik zveno uchun delyanka uzunligi.

$$l = \frac{2 \cdot 8 \cdot 2 \cdot 110}{1000 \cdot 4563.7} = 10,69 \text{ m}$$

5 kishilik zveno uchun:

$$l = \frac{5 \cdot 8 \cdot 2 \cdot 110}{1000 \cdot 4563.7} = 26,72 \text{ m}$$

G'isht qalinligi 1 g'isht bo'lganda 2 kishilik zveno uchun

$$l = \frac{2 \cdot 8 \cdot 2 \cdot 110}{1000 \cdot 333.7} = 14,9 \text{ m}$$

Devor (pardadevor) qalinligi 1/2 g'isht bo'lganda 2 kishilik zveno uchun delyanka uzunligi.

$$l = \frac{2 \cdot 8 \cdot 2 \cdot 110}{1001.2 \cdot 0.51} = 30 \text{ m}$$

Ikki kishilik zveno yordamida g'isht devor terilayotganda ish quydagicha olib boriladi, g'isht teruvchi 5(6) razryad g'isht teradi. G'isht teruvchi 3 razryad esa unga loy ham g'isht olib beradi, 5 kishilik zveno esa 2 ta 5 (6) razryadlik ishchilar g'isht teradi va 2ta 3 razryad ishchilar ularga loy va qorishma olib beradi va 3 razryad ishchi esa qolib ketgan joylar (zaburkalarni) o'zi g'isht olib, o'zi to'ldirib boradi.

ISH OLIB BORISHGA KO'RSATMALAR

G'isht devor 2 kishilik zveno bilan olib boriladi. CHok bosish usuli bir qatorli (tsepnaya). G'isht markasi 100, qorishma markasi 25, g'ishtni terishdan oldin namlab olish zarur. Qorishma qo'zg'aluvchanligi 5,8sm, yarus balandligi 1,0-1,2 m Inventarh podmost balandligi 1,0m, qolgan yarus balandligi 400x200x1000 mm li podmostni ustida bajarilgan.

G'ISHT TERISH ISHLARINI BAJARISHDA XAVFSIZLIK TEXNIKASI

G'isht terish ishlari qurilish normalari va mehyorlari qoidalariga amal qilgan xolda olib boriladi. Ish olib borish uchun zarur asbob, uskuna va moslamalar ish xarakteriga mos bo'lishi zarur. Yarush balandligi 1,2 m-dan oshganda ishchi joyi o'ralgan bo'lishi zarur. Xavoza va so'rilarda turib ish bajarayotganda u mustahkam urov bilan 1 metr balandlikda o'ralgan bo'lishi zarur, ishlayotgan ishchi beliga xavfsizlik kamarini taqib olishi zarur. Xavoza va surilarga chiqib-tushish uchun maxsus tutgichli zina bo'lishi kerak. So'ri va xavozalar ustiga belgilangandan ortiq yuk taxlash qat'iyan man etiladi.

Bino balandligi 6 m-dan ortiq bo'lsa unga 6m balandlikka bino perimetri bo'ylab qiyalik ichkariga 30% bo'lgan ximoya kozerok o'rnatiladi va bu kozhrek balandlik ortishi bilan xar 6 m ga qo'yilib boriladi. Bino balandligi 6m-gacha bo'lsa, u xolda bino atrofini g'isht devoridan 2m uzoqda o'rnatilgan balandligi kamida 2m-li ximoya o'rovi bilan o'raladi, shuningdek binoga kirib chiqish joylariga esa tepa qismi o'ralgan koridorlar xosil qilinadi.

G'ISHT TERISH ISHLARI UCHUN TEXNIK -IQTISODIY KO'RSATKICHLAR

G'isht terish ishlari uchun texnik -iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash uchun 3.1 jadvaldan g'isht terish ishlari uchun sarflangan umumiy mexnat sarfini, g'isht terish ishlari uchun (barcha ishlarga) berilgan ish xaqini olib quyida hisoblaymiz.

1. G'isht terish ishlari uchun sarflangan umumiy mexnat sarfi

$$Q_1 = 514,52 \text{ ishchi kuni}$$

$$Q_2 = 43,35 \text{ mashina smena}$$

2. G'isht terish ishlari uchun (barcha ishlarga) berilgan ish xaki 1991 yil narxni indeksatsiya qilish.

$$I_x = (3096,44 + 254,78) \cdot 1,61 \cdot 500 \times 10 = 26\,977\,321$$

3. 1m^3 g'isht terish uchun mexnat sarfi.

$$q = Q : V = (Q_1 + Q_2) : (V_1 + V_2) = (514,52 + 43,35) : (803,76 + 50,11) = 557,87 : 853,86 = 0,65 \text{ ishchi kun} / \text{m}^3$$

Bu yerda V_1 - 803,76 devorlarning hajmi, m^3

V_2 - 50,11 pardadevorning hajmi, m^3

4. G'isht teruvchilarni mexnat unumdorligi.

$$M_u = V : Q = 853,86 : 557,87 = 1,53 \text{ m}^3 / \text{ishchi kun}.$$

5. 1m^3 g'isht terishga sarflangan ish xaqi.

$$I_{x1} = U_x : V = 26\,977\,321 : 853,86 = 21\,845,75 \text{ so'm}.$$

G'ISHT TERISH ISHLARIDA RUXSAT BERILADIGAN CHETLANISHLAR

Terim sifatini uning boshlanishdan to tugaguncha qadar tekshirib turiladi, uning sifati qurilish mehyorlari va qoidalariga mos bo'lishi zarur.

G'isht terish ishlarini bajarish davomida bekilib ketadigan ishlar uchun qurilish tashkiloti va buyurtmachi vakillari guvohligida ishlarni qabul qilish dalolatnomasi tuzilishi shart. Oraliq qabul ishlarini qurilish tashkiloti vakili, buyurtmachi tomonidan qabul qilingandan so'ng navbatdagi ishni boshlashga ruxsat beriladi.

Mehnat sarfi va ish xaqi kalkulyatsiyasi jadvali

3.1-jadval

T/ R	Norma olin- gan paragra f	Ishning nomi	O'lov birligi	Ishning hajmi	O'lchov birlik mehnat sarfi ishchi smena mashina	Jami ish uchun mehnat sarfi ishchi uchun mash smen	O'lchov birligi uchun ish haqi sum	Talim uchun ish haqi sum
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	E 3-3	Qalinligi 1 ¹ / ₂ g'isht bo'lgan tosh va ichki devorlarni terish	M ³	216,8	3,76	99,41	26440	2628400.4
2	E 3-12	Qalinligi ½ g'isht bo'lgan pardadevorlarni terishi	M ³	42,96	0,51	2,67	26440	70594.8
3	B -1-6	G'ishtni ish joyiga uzatib berish	1000 dona	114,175	<u>0.82</u> 0.41	<u>11,41</u> 5,7	26440	452388.4
4	B 1-6	Qorishma ish joyiga uzatib berish	1m ³ qorishma	59,32	<u>0.42</u> 0.21	<u>3.03</u> 1.51	26440	120037.6
5	B 3-20	So'richalarni va xavzolarni o'rnatish yig'ishtirish	10 M ³ devor	25,976	<u>1.44</u> 0.48	<u>4.56</u> 1,52	26440	160755.2
Jami						<u>121.08</u> 8.73		3432176.4

Ishni bajarish grafigi jadvali

Jadval-3.2

